

ARAB VA O'ZBEK MAQOLLARIDAGI O'XSHASHLIKlar

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurdjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom

akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va mazmunli janrlaridan biri hisoblanadi. Arab va o'zbek maqollari ham juda boy va rang-barang bo'lib, ular milliy madaniyat va dunyoqarashning ko'zgusidir. Mazkur maqolada arab va o'zbek maqollarining umumiy jihatlari, o'xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi.

Kirish so'zlar: arab, o'zbek, maqol, tarix, din, sahro, dehqonchilik, madaniy aloqalar.

Maqollar xalq og'zaki ijodida alohida o'ringa ega bo'lib, ular avloddan-avlodga o'tib borib, donishmandlik, hayotiy tajriba va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Maqollarda xalqlarning turmushi, kelib chiqishi, o'ziga xosligi, yrf-odatlari kabilar mujassamlashgandir. Ma'lum bir xalqqa tegishli maqollarni o'rganar ekanmiz, bu orqali o'sha xalqning qanday ekanligini va xususiyatlarini tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi.

Arab va o'zbek xalqi maqollari xazinasi ham juda boy bo'lib, bu ikki xalq maqollari orasida farqlar bilan birgalikda umumiy jihatlar va bir qancha o'xshashliklarni ko'rishimiz mumkin. Har ikki xalq maqollarining asosiy xususiyatlariga to'xtalsak:

1. Hayotiy tajribaga asoslanganlik – har ikkala madaniyat maqollari ham hayotiy donolik va sinovlardan kelib chiqadi.
2. Qisqalik va lo'ndalik – maqollar, odatda, qisqa va mazmunli bo'lib, chuqur ma'noni o'zida mujassam etadi.

3. Ritmik tuzilish – o‘zbek xalq maqollarida qofiyadoshlik sezilarli bo‘lsa, arab maqollarida ham ohangdorlik muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

4. Didaktik xarakter – maqollar odatda axloqiy saboq beruvchi bo‘lib, hayotiy tajribadan kelib chiqib insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.

Ko‘plab arab va o‘zbek maqollarini mazmun jihatdan o‘xshash ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Misollar:

1. Ish va mehnat haqida:

Arabcha: "Kim ekkan bo‘lsa, o‘rishga haqli." (من زرع حصد)

O‘zbekcha: "Kim mehnat qilsa, shuning qo‘li duoga ochiq bo‘ladi."

2. Do‘slik va dushmanlik haqida:

Arabcha: "Do‘stingni sinab ko‘r, keyin do‘s tut." (جرب صديقك ثم صادقه)

O‘zbekcha: "Do‘s – boshga kulfat tushganda bilinadi."

3. Taqdir va sabr haqida:

Arabcha: "Har narsaning vaqtি bor." (لكل شيء وقت)

O‘zbekcha: "Har narsaning o‘z vaqtি bor."

Arabcha: "Kim sabr qilsa, yutadi." (من صبر ظفر)

O‘zbekcha: "Sabrning tagi sariq oltin."

4. Uddaburonlik haqida:

Arabcha: "Bir tosh bilan ikki chumchuqni urdi" (ضرب عصفورين بحجر واحد)

O‘zbekcha: Bir o‘q bilan ikki quyonni urdi.

Endi esa arab va o‘zbek maqollarining farqlari haqida ham to‘xtalib o‘tsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Arab va o‘zbek maqollari turmush tarzi va madaniy tafovutlar tufayli ayrim jihatlardan farq qiladi:

1. Diniy ta’sir: arab maqollarida islom dini ta’siri kuchliroq seziladi.

Masalan:

"Alloh sabr qiluvchilar bilan birga." (إن الله مع الصابرين)

O‘zbek maqollarida esa dinga oid unsurlar bo‘lsa-da, u kundalik hayotiy tajribalar bilan uyg‘unlashib ketgan.

2. Ko‘chmanchilik va dehqonchilik ta’siri:

Bilamizki, arablar yashaydigan joylarda sahrolar ko‘p qismni tashkil etadi. Shuning uchun, arab maqollarida cho‘l hayoti, savdogarlik va ko‘chmanchilik bilan bog‘liq hikmatlar ko‘p uchraydi.

O‘zbek maqollarida esa, tabiiyki, ularning turmush tarziga xos bo‘lgan dehqonchilik, hunarmandchilik va oilaviy qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, arab va o‘zbek maqollari xalq donishmandligining ajralmas qismi bo‘lib, ular insoniyatning umumiy qadriyatlarini aks ettiradi. Maqollar har bir millatning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. Shunday ekan, ularni o‘rganish va taqqoslash xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda aytish lozimki, arab va o‘zbek xalq maqollarining o‘xshashliklari ikki xalq o‘rtasidagi boy va qadimiy madaniy aloqalar mustahkamligi hamda o‘zaro bardavom bo‘lib kelayotgan munosabatlardan ham dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririysi, 2005.
2. Arab maqollari. Arabic proverbs. “Hilol nashr” nashriyoti.